

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **ALISHER NAVOIY VA XORAZM SHOIRLARI IJODIDA CHISTON: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK**

**Salomat MATKARIMOVA**

*Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*  
[smq777999@gmail.com](mailto:smq777999@gmail.com)

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804625>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy an'analarining Xorazm shoirlari ijodida davom ettirilishi chiston janri misolida tahlilga tortilgan. Bunda Navoiy va Ogahiy qalamiga mansub "Tanga" chistonining o'xhash va o'ziga xos jihatlari yoritilib, muayyan xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, an'ana, Xorazm shoirlari, chiston janri, Ogahiy, o'xhashlik, o'ziga xoslik.

**Abstract:** In this article analyzed the continuation of the Alisher Navoi's traditions in the works of the Khorezmian poets using the example of the chistan genre. In this regard, similar and unique aspects of the chistan "Tanga" by Navoi and Agakhi are emphasized, and certain conclusions are made.

**Keywords:** Alisher Navoi, tradition, poets of Khorezm, chistan genre, Agakhi, similarity, originality.

**Аннотация:** В статье анализируется продолжение традиций Алишера Навои в творчестве поэтов Хорезма на примере жанра чистан. В этом плане подчеркиваются сходные и уникальные стороны чистаны «Танга» Навои и Огахи, делаются определенные выводы.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, традиция, поэты Хорезма, жанр чистан, Агакхи, сходство, своеобразие.

Qator lirik janrlar Alisher Navoiy ijodida har tomonlama rivojlanib, mukammallik kasb etdi. Xususan, lug'z, muammo kabi janrlar turkiy adabiyotda to'la huquqli mustaqil janr darajasiga ko'tarildi va hayotchanlikka ega bo'ldi. Quyida biz lug'z janri borasidagi Alisher Navoiy an'analarining Xorazm shoirlari ijodida davom ettirilishini Ogahiy chistoni misolida tahlilga tortishni maqsad qildik.

Alisher Navoiy nozik humor hissi bilan yo'g'rilgan va asosiy g'oya ana shu humor orqali ifodalangan chiston janrining qator namunalarini yaratdi. "Lirikaning aslida og'zaki xalq ijodida tug'ilgan bu turi (chiston – S.M.) Navoiygacha ba'zi fors shoirlari ijodiga kirgan... Navoiy ham bu lirika turining yozma adabiyotdagi o'rnini qonuniylashtirdi va "Badoye ul-vasat"ga o'n chiston kiritdi" [2, 58]. Xorazm shoirlari ham Navoiyga ergashib, o'zlari tanlagan mavzu, sujet va obrazlar asosida ham Navoiyning g'oyaviy-ijodiy prinsiplariga amal qilgan holda qator chistonalr yaratganlar. Jumladan, Navoiy va Ogahiyning "Tanga" chistoni qiyoslanganda, qator o'xhash va o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlanadi.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Ogahiy va Navoiy chistonida tanganing shakliy belgilari va insonlar hayotida tutgan o‘rniga diqqat qaratiladi. Navoiy chistoni:

Ne sho‘x erurki, ulus ko‘ngli ichra savdosi  
Aning yuzidagi xatlar kebi muharrardur.  
Kumushdurur taniyu qimmati aning lekin  
O‘n ikki o‘z tanidek vajh ila muqarrardur.  
Ishida ul o‘n ikki har birisidur dinor,  
Ki, adl sikkasidin yuzlarida zevardur.  
Magarki angladi xumsul muborak asrorin  
Ki, soni bu adad o‘lmish, agarchi yuz mardur.  
Gadog‘a xumsidin ar saltanatdurur, ne ajab,  
Qachonki beklik aning rub‘idin tuyassardur [1, 658].

Navoiy va Ogahiyning tangani sho‘x, dilbarga qiyoslashlarida, tani siymin, kumush tan, deya sifatlashlarida, tanga yozuvlarini “yuzlarida zevar”, “ziynat afzoyi ruxi zebosi” tarzida talqin qilishlarida, “ulus ko‘ngli ichra savdosi”, “olam ahli boshida savdosi” tinmasligidan bahs etilishlarida mushtaraklik ko‘zga tashlanadi.

Farqli jihat, avvalambor, chiston hajmida va unda qo‘yilgan masalalarga munosabatdadir. Navoiy chistonida asosiy tasvir tanganing tashqi belgilariga qaratilib, 5 baytlik lug‘zning 7 misrasi shu xususda. Ogahiyning 8 baytdan iborat chistonining 5 misrasida tanganing materiali, tashqi ko‘rinishi, hajmi, qiymatini bildiruvchi yozuvi haqida so‘z boradi. Navoiy chistonida:

Kumushdurur taniyu qimmati aning lekin  
O‘n ikki o‘z tanidek vajh ila muqarrardur.  
Ishida ul o‘n ikki har birisidur dinor,  
Ki, adl sikkasidin yuzlarida zevardur, -

misralarida tanga bilan bog‘liq holat - “O‘n ikki o‘z tanidek vajh ila muqarrar, o‘n ikki har birisidur dinor” alohida qayd qilinadi-ki, bu tanganing aynan Navoiy davriga xos jihatlari ifodasidir. “Amir Temur davrida tilla tangalarning 12 turi mavjud bo‘lib, ular 1379-1388-yillarda Xorazm to‘liq bosib olinganidan so‘ng zarb etila boshlangan. Ayni vaqtda, Amir Temurning oltin tangalarida ilgari oltin tangalarda zarb qilingan “dinor” so‘zi yo‘q edi. Dinor so‘zi tilla tangani emas, balki undagi kumush miqdorini, ya’ni bu tangada o‘sha vaqtda amal qilingan tanga tizimidagi oltin-kumush nisbatiga binoan mavjud kumush miqdoriga teng edi” [3]. Navoiy tilla tangalarning 12 turi mavjudligiga hamda “dinor” kumushni anglatishiga diqqatni qaratadi. Ogahiy davrida tanganing 12 turi bo‘limgan. Shuning uchun uning chistonida tangaga xos bu xususiyat tilga olinmagan.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Agar salafi tanganing “ulus ko‘ngli ichra savdosi” dan so‘zlab, faqat “gado” va “bek” obrazlarini she’rga olib kirgan bo‘lsa, Ogahiy boshiga tanga savdosi tushgan ulug‘lar, faqir, g‘ani, qari, yosh yigit, adno, dono kabi obrazlar galareyasini tasvir maydoniga safarbar qiladi. Shoir ushbu obrazlarning tangaga munosabati va ularning hayotida tanganing tutgan o‘rniga e’tiborni qaratib, ijtimoiy mazmunni yanada kuchaytiradi: tanga adnoni e’tibor ichra ulus a’losi qilsa, uning yo‘qligi har a’loni adno xalqning adnosiga aylantirishi, jahon donosini xorlikka mubtalo qilishini yozadi. Bunda “Adno – a. Tuban, eng past, pastkash” demakdir [4, 30].

Ogahiyning chistoni Navoiydan farqli o‘laroq, ramali musaddasi mahzuf vaznida bitilgan bo‘lib, uning qofiyasi ham yangilangan:

Ul na dilbarkim, tani siymin o‘lub,  
Badr yanglig‘ surati siymosidur.  
Xat butub ikki yuzida sarbasar,  
Ziynat afzoyi ruxi zebosidur.  
Jussasi tirnog‘ yuzi yanglig‘ kichik,  
Lek ulug‘lar ishqining rasvosidur.  
Vaslini istab jahon bozorida  
Olam ahli boshida savdosidur.  
Ham faqir-u ham g‘ani devonasi,  
Ham qari-yu ham yigit shaydosidur.  
Topsa har adno visolin nogahon,  
E’tibor ichra ulus a’losidur.  
Yetsta har a’loga gar hajri oning,  
Jumla adno xalqining adnosidur.  
Topmasa gar iltifotin har kishi,  
Xordur, garchi jahon donosidur [5, 527].

Ko‘rinadiki, Navoiy chistonida “muharrardur”, “muqarrardur”, “zevardur”, “mardur”, “muyassardur” so‘zları qofiyaga olingan bo‘lsa, Ogahiy chistonida “siymosidur”, “zebosidur”, “rasvosidur”, “savdosidur”, “shaydosidur”, “a’losidur”, “adnosidur”, “donosidur” so‘zları qofiyadosh bo‘lib kelgan. Shuningdek, Navoiy “chistonlari... qat’iy shakl qonuniyatlariga ega emas...vazn turlicha, baytlar soni ham har joyda har xil” [2, 60]. Ogahiy chistoni esa muayyan bir vaznda yozilgan.

Navoiyda ijtimoiy mazmun oxirgi bir bayt doirasida berilgan bo‘lsa, Ogahiy chistoni yakunidagi 3 bayt ijtimoiy mazmundorlik kasb etgan:

Topsa har adno visolin nogahon,  
E’tibor ichra ulus a’losidur.  
Yetsta har a’loga gar hajri oning,

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Jumla adno xalqining adnosidur.

Topmasa gar iltifotin har kishi,

Xordur, garchi jahon donosidur.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm shoirlari Navoiy ijodidan mahorat masalalarini, lirik janrlar imkoniyatidan to‘laqonli foydalanishni, nazmni jamiyatdagi illatlarga qarshi kurash quroli darajasiga ko‘tarishni, she’rda so‘zni qanday ishlatish, o‘tkirlash yo‘llarini kamtarlik bilan o‘rgandilar, Navoiyni doim o‘zlarining ustozi deb bildilar. Ularning Navoiy ijodidan ta’sirlanib yaratgan chistonlari ham buni dalillaydi. Yashiringan narsa o‘xshatilgan narsalar, uning tashqi ko‘rinishiga xos jihatlarning ramziy tarzdagi talqinlarida mushtarakliklar kuzatilsa, chiston hajmi, vazni va qofiyasi, obrazlari hamda unda qo‘yilgan masalalarga munosabatdagi o‘ziga xosliklar Xorazm shoirlarining novatorligi, shaklda va fikr ifodasida yangilikka intilganliklarini ko‘rsatadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

#### **(Использованная литература / References):**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, I jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 690 b.
2. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –T.: O‘ZBEKISTON NMIU, 2015. – 295 b.
3. <https://azkurs.org/amir-temur-va-temuriylar-tangalari.html>
4. Navoiy asarlari lug‘ati. –T.: Fan, 1972. – 784 b.
5. Ogahiy, Muhammad Rizo. To‘la asarlar to‘plami. I Jild. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2014. – 405 b.